(3). Cialdini Robert B. Social Influence: Compliance and Conformity. Annual Review of Psychology. Palo Alto. Annual Reviews, 2004, vol. 55, p. 591–621.
(4). Christie Richard; Geis, Florence. Studies in Machiavellianism. Academic Press Journal of Personality Research. New York, Academic Press, 1970, № 2, p. 10–34.
(5). Kahneman Daniel. Maps of Bounded Rationality. Psychology for Behavioral Economics. American Economic Review. Nashville, American Economic Association, 2003, vol. 93, № 5, p. 1449–1475.

Abduvaxabova Dilnoza Nurmaxamatovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalai universiteti, f.f.f.d. (PhD), dotsent)

MAKRO VA MIKROEKOLINGVISTIKA: TIL VA EKOLOGIK MUHIT O‘ZARO TA’SIRINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekolingvistikaning muhim yo‘nalishlari hisoblangan makro va mikroekolingvistikaning nazariy asoslari hamda ularning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda til va ekologik muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir turli darajalarda ko‘rib chiqilib, tillar ierarxiyasi, globallashuv jarayonlari va lingvoekologik omillarning nutq faoliyatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, emotsional lingvoekologiya doirasida kommunikativ muhitdagi “og‘riqli nuqtalar”ni aniqlash masalasi muhokama etiladi. Tadqiqot natijalari makro va mikroekolingvistik yondashuvlar tilning ekologik holatini kompleks baholash imkonini berishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *makroekolingvistika, mikroekolingvistika, lingvoekologiya, globallashuv, tillar iyerarxiyasi, emotsional lingvoekologiya.*

Абдувахабова Дилноза Нурмахаматовна (Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми, PhD по филологическим наукам, доцент)

МАКРО- И МИКРОЭКОЛИНГВИСТИКА: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЯЗЫКА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы макро- и микроэкологической лингвистики как важнейших направлений эколингвистики, а также их место в современной лингвистике. В исследовании взаимодействие языка и экологической среды рассматривается на различных уровнях; освещаются иерархия языков, процессы глобализации и влияние лингвоэкологических факторов на речевую деятельность. Кроме того, в рамках эмоциональной лингвоэкологии обсуждается проблема выявления «болезненных точек» в коммуникативной среде и оценки их социально-культурных последствий. Результаты исследования показывают, что макро- и микроэкологический подходы позволяют комплексно оценить экологическое состояние языка, определить факторы его устойчивого развития и глубже понять современные коммуникативные процессы.*

Ключевые слова: *макроэкологическая лингвистика, микроэкологическая лингвистика, лингвоэкология, глобализация, иерархия языков, эмоциональная лингвоэкология.*

Abduvakhabova Dilnoza Nurmakhamatovna (Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, PhD in Philology, Associate Professor)

MACRO- AND MICRO-ECOLINGUISTICS: A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE INTERACTION BETWEEN LANGUAGE AND THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT

Annotation*. This article analyzes the theoretical foundations of macro- and micro-ecolinguistics as key directions within ecolinguistics and examines their role in modern linguistics. The study explores the interaction between language and the ecological environment at different levels, highlighting language hierarchy, globalization processes, and the impact of linguo-ecological factors on speech activity. Furthermore, within the framework of emotional linguo-ecology, the issue of identifying “pain points” in the communicative environment and assessing their socio-cultural consequences is discussed. The research findings demonstrate that macro- and micro-ecolinguistic approaches enable a comprehensive evaluation of the ecological state of language, the identification of factors ensuring its sustainable development, and a deeper understanding of contemporary communicative processes.*

Keywords*: macroecolinguistics, microecolinguistics, linguo-ecology, globalization, language hierarchy, emotional linguo-ecology.*

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, kommunikativ makonning kengayishi hamda lingvistik xilma-xillikning qisqarishi zamonaviy tilshunoslik oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, til va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni turli darajalarda o‘rganish zarurati ekolingvistikaning ichki differensiasiyasini kuchaytirdi. Natijada mazkur yo‘nalish doirasida makroekolingvistika va mikroekolingvistika kabi ikki asosiy tadqiqot darajasi shakllandi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, tilning ekologik holatini baholashda global va lokal omillarni kompleks koʻrib chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Tadqiqotning maqsadi – makro va mikroekolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslarini yoritish, ularning oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatish hamda til va ekologik muhit oʻrtasidagi munosabatlarni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot integrativ yondashuv asosida amalga oshirildi boʻlib, unda tilni murakkab, koʻp qatlamli va dinamik tizim sifatida talqin etish tamoyiliga tayanildi. Ish jarayonida tizimli-tavsifiy metod, sotsiolingvistik tahlil, diskursiv tahlil, qiyosiy-tipologik metod hamda fanlararo interpretatsiya usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Metodologik asos sifatida A.de Svan va L.J.Kalvetning tillar ierarxiyasi modeli, shuningdek, zamonaviy lingvoekologik konsepsiyalar qabul qilinib, ular tilning global va lokal makondagi funksional maqomini aniqlashda nazariy platforma vazifasini bajardi [5;55–60-b.; 6; 72–b.]. Tadqiqot materiali sifatida ekolingvistika, globallashuv va til siyosatiga oid fundamental hamda zamonaviy ilmiy manbalar tanlab olinib, ularning konseptual yoʻnalishlari qiyosiy tahlil qilindi. Til va ekologik muhit oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir mexanizmlarini aniqlash maqsadida lingvistik birliklarning funksional-semantik va pragmatik xususiyatlari chuqur oʻrganildi. Makro va mikro darajadagi lingvoekologik omillarning kommunikativ jarayonlarga taʼsiri diskurs doirasida tizimli ravishda tahlil etildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda konseptual modellash va ilmiy abstrahatsiya usullaridan foydalanilib, tilning ekologik barqarorligi hamda ijtimoiy-kommunikativ muvozanatini taʼminlovchi omillar nazariy jihatdan asoslab berildi.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy ekolingvistika anʼanaviy ravishda makro va mikro darajalarga ajratiladi [1;26-b.]. Makroekolingvistika til tizimining global va mintaqaviy miqyosdagi ekologik holatini oʻrganishga qaratilgan boʻlsa, mikroekolingvistika tilning konkret kommunikativ vaziyatdagi namoyon boʻlish shakllarini tahlil qiladi [3;14-b.]. Ushbu ikki yondashuv oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, tilning umumiy ekologik manzarasini kompleks tushunishga xizmat qiladi.

Makroekolingvistik tahlil doirasida globallashuv jarayonlarining dunyo tillari tizimiga taʼsiri alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, jahon kommunikativ makonida tillar oʻrtasidagi funksional notekislik tobora kuchayib bormoqda. A.de Svan va L.J.Kalvet tomonidan ishlab chiqilgan tillar tortishish modeli lingvosferadagi iyerarxik tuzilmani tushuntirishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi [5;125-b.;6;108-b.]. Ushbu modelga koʻra, tillar periferik, markaziy, supermarkaz va gipersentral guruhlarga ajratiladi. Bunday ierarxiya globallashuv sharoitida ayrim tillarning kommunikativ salohiyati ortib borayotganini, boshqalari esa funksional maydondan siqilib chiqayotganini koʻrsatadi.

Lingvistik xilma-xillikning qisqarishi makroekolingvistik nuqtai nazardan jiddiy ekologik muammo sifatida baholanadi. Chunki har bir til oʻzida muayyan madaniy va kognitiv tajribani mujassam etadi. Til yoʻqolishi esa insoniyatning konseptual olami kambagʻallashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ekolingvistika tillarning yashovchanligini taʼminlash va lingvistik muvozanatni saqlash masalalariga alohida eʼtibor qaratmoqda.

Mikroekolingvistika esa eʼtiborni bevosita nutq jarayoniga, kommunikativ muhitga va til birliklarining real qoʻllanishiga qaratadi. Ushbu yoʻnalishda tilning ichki ekologik holati, nutq madaniyati, kommunikativ stress omillari hamda emotsional lingvoekologiya masalalari oʻrganiladi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy kommunikativ makonda agressiv nutq, manipulativ diskurs va informatsion ortiqchalik kabi omillar lingvoekologik muvozanatga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Emotsional lingvoekologiya doirasida kommunikativ muhitdagi “ogʻriqli nuqtalar”ni aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi [7;14-b.]. Bunday nuqtalar nutq ishtirokchilarining psixologik holati, ijtimoiy ziddiyatlar yoki media bosimi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Til birliklarining emotsional yuklamasi ortishi kommunikativ muhitning ekologik sifatiga bevosita taʼsir qiladi. Shu bois mikroekolingvistik tadqiqotlarda nutq etikasi, diskurs gigiyenasi va kommunikativ masʼuliyat tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Makro va mikro darajadagi jarayonlar oʻzaro chambarchas bogʻliq. Globallashuv natijasida kuchaygan til raqobati lokal kommunikativ amaliyotga ham taʼsir koʻrsatadi. Aksincha, nutq madaniyatidagi salbiy tendensiyalar tilning umumiy ekologik maqomiga taʼsir qilishi mumkin. Shu jihatdan, ekolingvistik tadqiqotlarda koʻp darajali, integrativ yondashuvdan foydalanish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqamli kommunikatsiyaning kengayishi makro va mikroekolingvistik jarayonlarning yangi koʻrinishlarini yuzaga chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn media va virtual diskurs maydonlarida tilning ekologik holatini monitoring qilish ekolingvistikaning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari makro va mikroekolingvistika til hamda ekologik muhit oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni turli darajalarda oʻrganishga xizmat qiluvchi oʻzaro bogʻliq va bir-birini toʻldiruvchi yoʻnalishlar ekanligini koʻrsatdi. Globallashuv jarayonlari lingvosferada iyerarxik notekislikni kuchaytirib, ayrim tillarning funksional mavqeini mustahkamlash barobarida lingvistik xilma-xillikka tahdid solayot-

gani aniqlandi. Shu bilan birga, kommunikativ stress, agressiv diskurs va boshqa mikroekolingvistik omillar til muhitining ekologik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslandi. Emotsional lingvoekologiya esa zamonaviy kommunikativ makonni sog'lomlashtirish, nutq madaniyatini barqaror rivojlantirish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda muhim nazariy platforma sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, makro va mikroekolingvistik yondashuvlarning uyg'unligi tilning ekologik holatini kompleks baholash hamda uning barqaror taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Kelgusida ekolingvistik tadqiqotlarni raqamli diskurs, media makon va korpus materiallari asosida chuqurlashtirish ilmiy natijalarning empirik asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Haugen E. The Ecology of Language. Stanford, Stanford University Press, 1972, 366 p.

(2). Halliday M.A.K. New Ways of Meaning. The Challenge to Applied Linguistics. Journal of Applied Linguistics, 1990, vol. 6, p. 7–36.

(3). Mühlhäusler P. Linguistic Ecology. Language Change and Linguistic Imperialism. London, Routledge, 1996, 279 p.

(4). Haarmann H. Language in Ethnicity. A View of Basic Ecological Relations. Berlin, Mouton de Gruyter, 1986, 270 p.

(5). de Swaan A. Words of the World. The Global Language System. Cambridge, Polity Press, 2001, 253 p.

(6). Calvet L.-J. Towards an Ecology of World Languages. Cambridge, Polity Press, 2006, 209 p.

(7). Марусенко М.А. Глобальная лингвистика. Москва, Флинта; Наука, 2015. 320 с.

Kushmanov Jasur Bahodirovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD); email: jasur.k@urdu.uz),

Shomurotova Hilola Axmadjon qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi stajyor o'qituvchisi; email: hilola.shomuratova@urdu.uz)

BEVOSITA TARJIMADA PRAGMATIK MUAMMOLAR: NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bevosita tarjimada yuzaga keladigan pragmatik muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsadning saqlanishi, madaniy kontekstning uzatilishi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Maqolada bevosita tarjimada pragmatik muammolarning kelib chiqish sabablari aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilingan. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *bevosita tarjima, pragmatika, pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsad, madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, lingvopragmatika.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЯМОГО ПЕРЕВОДА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. *В этой статье анализируются прагматические проблемы прямого перевода с теоретических и практических точек зрения. Исследование рассматривает такие вопросы, как прагматическое эквивалентность, сохранение коммуникативной цели и передача культурного контекста. В статье выявляются причины прагматических проблем при прямом переводе и предлагаются решения. Результаты исследования вносят вклад в развитие теории и практики перевода.*

Ключевые слова: *прямой перевод, прагматика, прагматическая эквивалентность, коммуникативная цель, культурный контекст, стратегии перевода, лингвопрагматика.*

PRAGMATIC PROBLEMS IN DIRECT TRANLATION: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Annotation*. This article analyzes pragmatic problems in direct translation from theoretical and practical perspectives. The study examines issues such as pragmatic equivalence, preservation of communicative purpose, and transfer of cultural context. The article identifies the causes of pragmatic problems in direct translation and proposes solutions. The research findings contribute to the development of translation theory and practice.*

Keywords: *direct translation, pragmatics, pragmatic equivalence, communicative purpose, cultural context, translation strategies, linguopragmatics.*

Kirish. Zamonaviy tarjimashunoslikda pragmatik muammolar alohida o'rin tutadi. Bevosita tarjimada asl matnning pragmatik xususiyatlarini to'liq yetkazish tarjimonlar oldida turgan murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.[1] Pragmatika – tilshunoslikning nutq aktlari, kommunikativ maqsad va kontekstni o'r-

[1] Shveyser A.D. (1988). Tarjima nazariyasi: status, muammolar, aspektlar. Moskva, "Nauka".